

EKOLOGIK EHTIYOJ BIOLOGIK TURLARI

Aburaxmonov Alimardon Abdusalomovich

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ekologik manfaatda ekologik vaziyat bilan subyektning tabiatni muhofaza qilish ehtiyoji o'rtasidagi munosabat ifodalanadi. Bunda, subyekt ekologik munosabatlarni to'liq bilishi yoki bo'lmasligidan, mutanosib aks ettirishi yoki ettira olmasligidan qat'iy nazar, u obyektiv reallik tarzida mavjud bo'lib qolaveradi. O'zining mazkur xususiyatiga qarab, ekologik manfaat ekologik munosabatlarning ijtimoiy mazmunini va rivojlanish dinamikasini nisbatan to'liq va konkret tarzda ifodalaydi.

Tayanch so'zlar: ona tabiatga mehr-muhabbat, planetada iqlim o'zgarishi, ekologik xavf, ekologik inqiroz, ekologik halokat.

Jamiyat rivojlanishi kishilarning muayyan ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi mavqeyining o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunga kelib, tabiatni muhofaza qilish ehtiyojlari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa munosabatlarini belgilovchi omilga aylandi. Zero, "ekologik munosabatlarda kishilarning tabiiy-tarixiy ehtiyojlari kondiriladi. Bu munosabatlar insonning tabiatga ijtimoiy borlig'i voyesitasi orqali ta'sir usulidir". Shuning uchun ham tabiat va inson munosabatlarini insonparvarlashtirish, axloqiy mas'uliyat asosiga qurish talab etiladi.

Falsafiy adabiyotlarda ekologik faoliyatni determinantlashtiruvchi, ehtiyoj, manfaat va maqsadlarni tadqiq qilish, ularning aloqalarini fragmentar yoki bir-biridan mustaqil olib qarashida namoyon bo'lmoqda. Bizning tadqiqotimiz doirasida: "ekologik ehtiyoj", "ekologik manfaat", "ekologik maqsad", "ekologik motiv" kategoriyalari ekologik faollikning obyektiv, subyektiv omillari tarzida olib qaralmokda.

Ekologik ehtiyoj biologik turlar hamda - ijtimoiy subyektning yashashi va hayotini davom ettirishi uchun qulay bo'lgan optimal tabiiy shart-sharoitlarni, biosfera muvozanatini saklash zaruriyatidan kelib chiqadi.

Ekologik manfaat insonga xos bo'lgan sof ijtimoiy xususiyat hisoblanib, ekologik munoyebatlarning mazmuni muayyan ijtimoiy birliklarning: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy ehtiyojlari bilan bog'lanib konkretlashadi. Shuning uchun ayrim ijtimoiy guruxlarning ekologik manfaatdorligi boshqa guruhlarning iqtisodiy yoki boshqa manfaatlariga mos kelmasligi mumkin. Shunga ko'ra, ekologik manfaat "individuallashgan", "personifikatsiyalashgan" ehtiyoj ko'rinishiga ega bo'ladi.

Ekologik manfaatda ekologik vaziyat bilan subyektning tabiatni muhofaza qilish ehtiyoji o'rtasidagi munosabat ifodalanadi. Bunda, subyekt ekologik munosabatlarni to'liq bilishi yoki bo'lmasligidan, mutanosib aks ettirishi yoki ettira olmasligidan qat'iy nazar, u obyektiv reallik tarzida mavjud bo'lib qolaveradi. O'zining mazkur xususiyatiga qarab, ekologik manfaat ekologik munosabatlarning ijtimoiy mazmunini va rivojlanish dinamikasini nisbatan to'liq va konkret tarzda ifodalaydi.

Ekologik voqelik bilan ekologik ehtiyojlar o'rtasida ziddiyatlar mavjud bo'lib, subyektning tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan amaliy faoliyati, obyektiv omil sifatida, bu ziddiyatni determinantlashtirib turadi. Ekologik ehtiyojlar bilan iqtisodiy munosabatlar o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi jarayonida, subyektning obyektiv ekologik manfaatlari vujudga keladi. Ekologik ehtiyojlarning konkretlashib, manfaat darajasiga ko'tarilishi bilan jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy manfaatlarida tabaqalanish jarayoni boshlanadi. Shu bilan birgalikda, umumbashariy miqyosda, ekologik xavfning oshib borishi, individual manfaatlarning umuminsoniy maqsadlari doirasida birlashish chorrahalarini vujudga keltiradi. Xuddi shu hodisa ekologik manfaatlarning boshqa manfaatlardan farqini ko'rsatadi.

Ekologik manfaatlar obyektiv hodisa bo'lib, uning tarixiy kelib chiqishi, rivojlanish qonunlari subyekt faoliyatiga bog'liq emas. Lekin, ekologik manfaatlarni faqatgina obyektiv shart-sharoitlar, omillar bilan bog'liqligini mutlaklashtirishdan iborat fatalistik nazariyalar, uning mazmunini to'liq ochib bera olmaydi. Zero, ekologik manfaatlarning obyektivligini e'tirof etgan holda, uning subyektiv jihatlarini har tomonlama hisobga olish, inson omili roli oshib borayotgan hozirgi vaziyatda, muhim metodologik ahamiyat kasb etishi mumkin. Shuni ham aytish kerakki, ekologik ehtiyoj subyektning ekologik faoliyatiga, mas'uliyatini anglashiga ta'sir qiluvchi hamma obyektiv omillarni butunligicha qamrab olishi mumkin emas. Shunday ekan, shaxs va ijtimoiy birliklarning ekologik manfaatlariga quyidagi subyektiv sabablar salbiy ta'sir qiladi:

1) ayrim ijtimoiy birliklar o'zlarining boshqa manfaatlarini ekologik ehtiyojlarga qarama-qarshi qo'yishdan vaqtinchalik, utilitar maqsadlariga erishadilar;

2) ularning jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy mavqei ustqurma elementlarini monopoliyalashtirib, o'z manfaatlarga bo'ysundirishga imkoniyat yaratdi;

3) ekologik ehtiyoj va manfaatlarga salbiy konformistik munosabat, uni vujudga keltirgan, rivojlantirgan omillarga, uslub hamda vositalarga loqaydlik kayfiyatlarini mustaxkamlaydi.

Ekologik mas'uliyatni oshirish mexanizmlari bo'lgan ehtiyojlar, tabiat-jamiyat-inson majmuasi rivojlanish qonunlaridan kelib chiqib, ijtimoiy munosabatlarning konkret ko'rinishi sifatida, subyekt faoliyatining turli darajalari o'rtasidagi bog'lanishlari va aloqalarning ifodalanishidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mo'yidinov, A. (2021). Yoshlarni turli tahdidlardan himoya qilishda ajdodlar merosidan foydalanishning ahamiyati. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 132-137.
2. Asilbek, M. (2022). Socio-philosophical aspects of education of an enlightened person in the development of society. *Conferencea*, 183-186.
3. Adham o'g'li, M. A. (2022). The role of national witchcraft heritage in the spiritual rise of society (socio-philosophical analysis). *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 122-127.
4. Muydinov, A. (2022). Enlightenment in turkestan in the second half of the xix-early xx centuries. Enlightenment by jadid school. *Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(10), 14-20.
5. Ruzmatovich, U. S. (2022). Processes of organization of technical, tactical and physical preparation in national wrestling training. *International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(3), 65-68.
6. Ruzmatovich, u. S. (2022). Changes expected to come in our life movements. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 485-489.
7. Shohbozjon, K., & azizjon, m. (2022). Preparing school students in the field of physical culture and sports before entry to higher education. *International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences issn: 2349-7793 impact factor: 6.876*, 16(10), 100-108.